Xotira va qadrlash kuni keng nishonlanmoqda

Inson xotirasi muqaddas, qadri aziz. Yurtimizda keng nishonlanayotgan Xotira va qadrlash kuni mazmun-mohiyatida ham ana shu ezgu fazilatlar mujassam.

9-may butun yurtimiz bo’ylab keng nishonlamoqda va turli tadbirlar o’tkazilmoqda. Xotira maydoni esa odamlar bilan gavjum. Ushbu qutlug’ sana munosabati bilan O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi xodimlari ham “Motamsaro ona” haykali poyiga gulchambarlar qo’ydilar. O’tganlar jasorati, yurt oldidagi fidoyiligi yod etildi, Vatan va xalq osoyishtaligi yo’lida jon berganlarning xotirasi uchun sukut saqlanib, hurmat bajo keltirildi.